
Farg'ona shahrida Koreys tili o'qitish markazi ish boshladi

Farg'ona shahrida Posco International Textile kompaniyasi tomonidan o'tgan 2022 yilda barpo etilgan Yoshlar ta'lim markazi qoshida Koreys tili o'qitish markazi tashkil etildi.

Tadbirda viloyat hokimining o'rinbosari Nuriddin Mamajonov, Koreya Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va Muxtor elchisi Kim Xi Sang ishtirok etdilar.

Ushbu markazga 13 yoshdan yuqori bo'lgan yoshlar qabul qilinib, ularga bepul 4 oylik o'quv kurslari tashkil etiladi. Hozirda markazda 50 nafar tinglovchi ta'lim olmoqda.

Markazning rasmiy ochilish marosimidan so'ng mehmonlar sinf xonalarida o'quvchilarga yaratilgan sharoitlar, o'quv jarayonlari va darsliklar bilan yaqindan tanishdilar.

2023-12-13 14:06:29